



Toshkent sh.

№ 5447

19.12.2023

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 14-iyundagi PF-154-sonli "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari bilan belgilangan vazifalarni bajarish, shuningdek Bank faoliyatining "Ochiqlik indeksi"ni lozim darajada ta'minlash maqsadida:

1. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodika"ning indikatorlarida ko'rsatilgan "Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar"ni o'z vaqtida va to'liq joylashtirish uchun:

1-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 1-ilovaga muvofiq;

2-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 2-ilovaga muvofiq;

3-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 3-ilovaga muvofiq;

4-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 4-ilovaga muvofiq;

5-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 5-ilovaga muvofiq;

6-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 6-ilovaga muvofiq;

7-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 7-ilovaga muvofiq;

8-indikator ko'rsatkichlari bo'yicha 8-ilovaga muvofiq;

"Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar"ni bankning rasmiy veb-sayti va (yoki) "Ochiq ma'lumotlar portaliga o'z vaqtida va lozim darajada joylashtirish uchun **9-ilovaga** muvofiq;

"Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish Qoidalari" (ro'yxat raqami: 2383, 31.07.2012 yil)ga asosan Bank faoliyatiga oid muhim faktlarni oshkora qilish bo'yicha **10-ilovaga** muvofiq tarkibiy bo'linmalar tayinlansin.

Ma'lumotlarni lozim darajada, sifatli tayyorlanish va o'z vaqtida joylashtirilish uchun ilovalarda belgilangan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari shaxsan mas'ul ekanliklari belgilansin.

2. Barcha joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar (rahbariyat murojaatlari, qonunchilik hujjatlari va lozim bo'lgan ichki me'yoriy hujjatlar, tadbirlar, shu jumladan keng jamoatchilik va OAV ishtirokida o'tkazilgan tadbirlar, so'rovnomalar, targ'ibot materiallari, matbuot

anjumanlari, tanqidiy materiallarga bildirilgan munosabatlar bundan mustasno) bankning Axborot xizmati, Yuridik departamenti bilan kelishilgandan, shuningdek nazorat qiluvchi Boshqaruv Raisi o'rinbosari, (Kredit, Risk bosh direktori)ning ruxsati olingandan so'ng mas'ul tarkibiy bo'linmalar tomonidan joylashtirilishi belgilansin.

3. Marketing departamenti (O.Abduraximov) va Axborot texnologiyalari departamenti (A.Kenjayeov) zimmasiga tarkibiy bo'linmalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-sayt va (yoki) "Ochiq ma'lumotlar portali"ga joylashtirilishini ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur Farmoyish qabul qilinishi munosabati bilan Bank Boshqaruvi Raisining 2021-yil 5-oktabrdagi 331-sonli hamda 2023-yil 15-fevraldagi 382-sonli Farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur Farmoyish ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisi o'rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi
Akbarjonov Aziz Akbarjono'g'li



A.R.Yoqubjonov